

## **Ona tili darslarini samarali o'tishda interfaol metodlardan foydalanish**

*Xalqaro Nordik universiteti katta o'qituvchisi*  
**MANSUROVA NILUFAR MUXTIMOVNA**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о современных педагогических методах и современных педагогических технологиях в обучении родному языку.

**Abstract:** This article provides information about modern pedagogical methods and modern pedagogical technologies in teaching mother tongue.

**Kalit so'zlari:** Zamonaviy metodlar, an'anaviy usullar, savodxonlik, pedagogik texnologiyalar, ona tili. "Zamonaviy o'qituvchi", "Lider pedogog", "*Kakografiya*

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev shunday deydi: "O'qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iborat. Zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakkam ma'rifat va yuksak madniyat egasi bo'lish-- uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Shunday ekan bolalarimiz kitob o'qishi kerak. Kitob o'qigan odamdan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Kitobsiz kelajak yo'q". Prezidentimiz hozirgi kunda ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratmoqda. Mamlakatimizda Ta'lim to'g'risidagi qonun dastlab 1992 yilda qabul qilingan, 1997 yilda esa yangi tahrirdagisi qabul qilingan edi. 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunda ta'lim sohasida hozirgi davrda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlar va islohotlar o'z aksini topdi.

Shunday shiddat bilan rivojlanayotgan zamon bilan hamnafas o'qituvchi o'z fanini, albatta, yangi metodlar, usullar va tehnologiyalarsiz tasavvur eta olamaydi. Jumladan ona tili fani o'qituvchisi ham "Zamonaviy o'qituvchi", yoki "Lider pedogog" maqomiga erishish uchun to'xtovsiz izlanishda bo'lmog'i lozim.

Ona tilimizning o'ziga xos nafosatini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, va undan oqilona foydalanishga o'rgatish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborotlar, pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda "*Venn diagrammasi*", "*Klaster*", "*Aqliy hujum*", "*Bumerang*", "*Blits-so'rov*", "*Keys-stadi*", "*T*" *chizma*, "*Baliq skeleti*", "*Muammoli vaziyat*", "*Blits-so'rov*", "*Rezyume*" kabi turli tuman metodlar paydo bo'ldi. Shunday usullardan biri kakografiya ya'ni *Kakografiya* so'zi lotincha *kakos* – *yomon*, *xunuk*, *yoqimsiz* va *graphos* – *yozmoq* so'laridan olingan bo'lib, muayyan maqsadni ko'zlab xatoliklarga yo'l qo'yilgan matnni tuzatirish orqali o'quvchilarga imloni o'rgatish usuli sanaladi

Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo'yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo'limlari bilan bog'liq amaliy darslarni o'tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o'quvchilarga unli va undosh tovushlar bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar berilgach, "Mustahkamlash darslari" yoki "Takrorlash darslari"da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning aytilishi va yozilishi o'rtasidagi farqqa qaratiladi. Menga ushbu metod 5-sinf o'quvchilarga Orfoepiya va orfografiya, leksikografiya, fonetika mavzularini o'rgatishimda qo'l kelgan. Jumladan "Paronimlar" mavzusidan so'ng o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi:

*Xato yozilgan paronim so'zlarni toping, ularni imlo qoidalariga mos ravishda to'g'rilab, daftaringizga ko'chiring.*

Topshirig'ini xat taxtaga yozamiz, yoki ilib qo'yamiz, agarda yuqori 10-11-sinflarda qo'llasak yoddan o'qisak ham bo'ladi.

*Birovga choq qazisang, o'zing tushasan. Mart bir o'ladi, nomart – ming. Qarz ikki qo'ldan chiqadi. Onangni kiftingda ko'tarsang, singlingni kaftingda ko'tar.*

*Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,*

*Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana,*

*Xalq bo'lishga haddi sendek kim bor yana,*

*Moziyni yot etay desang – xalq bo'l, elim! [4, 10-bet].*

Gaplardagi *choh, mard, momard, qars, kaft, kift, yod* so'zlari noto'g'ri yozilgan. Buni faqat o'ylash, fikrlash, leksikologiya bo'yicha o'tilganlarni eslash, xotirlash va zaruriy xulosalar chiqarish orqaligina topish mumkin. Bu esa o'quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi, ulardagi mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan: bir sinf miqyosida olsak ularning imlo savodxonligini har chorak monitoring qilish mumkin.

Keying metodimiz esa "Qadamlar"metodi deb nomlanib, asosan, iqtidorli guruh sardorlari uchun beriladi.

1-qadam Ko'chirma gap va boshqa turdagi qo'shma gaplarning farqi nimada?

2-qadam Ko'chirma gapni qanfdan qismlar tashkil etadi? Misol keltiring

3-qadam A. Avloniyning ta'lim-tarbiya haqodagi hikmatli so'zlaridan qatnashtirib ko'chirma gap hosil qiling?

4-qadam "Ilm zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur",-- deb yozadi Abdulla Avloniy. Ushbu gapni o'zlashtirma gapga aylantiring.

5-qadam. Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylatirayotganimizda qanday o'zgarishlar bo'lishi mumkin?

7-qadam. Ko'chirma gaplarda faol ishlatiladigan tinish belgilari qaysilar?

- O'quvchi qadamlar bilan ko'tarilib boradi.

- 1. O'quvchilar guruhlarga ajratilgan holatda bo'ladilar. Eng iqtidorli o'quvchilardan sardorlar saylanib, ular o'zaro raqobatchi sifatida bellashadi. Guruhlar sardorlari o'rnidan turgan holda xat taxtaga qarama-qarshi devor oldida turadilar.
- 2. Raqib o'quvchilar savol beradi. Sardorlar esa savollarga javob berolsa, turgan joyidan bir qadam siljiydilar. Bir savolga bir qadam. Kim eng ko'p savolga javob berib, birinchi bo'lib xattaxta yoniga yetib borsa, u g'olib bo'adi.
- Bu metodda iqtidorli o'quvchilarning salohiyatini yanada oshirish individual emas, balki guruhli holatda ham qo'shimcha shug'ullanish imkonini beradi, o'ziga bo'lgan ishonchni yanada oshirishga yordam beradi.

### *Foydalanilagan adabiyotlar*

1. *«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»*. – T.: «O'zbekiston», 1997.
2. *Ikromova R. “Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar”* – T.: «O'qituvchi», 1993-y.
3. *Nurmanov V., R. Rasulov. “O'zbek tili jadvallarda”* –T.: «O'qituvchi», 1999. 27-30 b.
4. *Qosimova K. “Ona tili o'qitish metodikasi”* –T.: «Nosir», 2009. 13— 136 b.
5. *G'ulomov A. “Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari”* – T.: «O'qituvchi», 1992 - y.
6. *Davriy nashrlar va gazetalar:*
7. *“Til va adabiyot ta'limi” jurnallari.*